

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yil uchun Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 121 489,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yil bilan taqqoslaganda 8,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,6 % ga yetdi.

2025- yil uchun Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2024-2025- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	103 882,7	121 489,5	108,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	102 312,8	119 527,1	107,9
mahsulotlarga sof soliqlar	1 569,9	1 962,4	111,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	102 312,8	119 527,1	107,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32 387,2	34 013,7	103,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23 321,8	28 481,8	110,6
sanoat	16 957,0	20 849,9	108,5
qurilish	6 364,8	7 631,9	116,2
xizmatlar	46 603,8	57 031,6	109,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15 135,9	18 973,3	114,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7 526,0	10 085,9	116,8
boshqa xizmat tarmoqlari	23 941,9	27 972,4	104,8

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 28 001,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,9 % ga yuqoridir.

2024-2025- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2024-2025- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2024-2025- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,5	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31,7	28,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,8	23,8
sanoat	16,6	17,4
qurilish	6,2	6,4
xizmatlar	45,5	47,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,8	15,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,4	8,4
boshqa xizmat tarmoqlari	23,3	23,4




2025- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,5 % ni, sanoat tarmog'i 17,4 % ni, qurilish 6,4 % ni va xizmatlar sohasi 47,7 % ni tashkil qildi.

2024-2025 yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2024- yilda – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2024- yilda – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2024- yilda – 0,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,4 f.p. (2024- yilda – 4,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilda – 0,2 f.p.) ga ko'paydi .

2025- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025-yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,5 %), sanoatda – 108,5 % (17,4 %), qurilishda – 116,2 % (6,4 %), xizmatlar sohasida – 109,9 % ni (47,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,5 % (15,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,8 % (8,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,8 % dan (23,4 %) iborat bo'ldi.

2024-2025- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,4 %

YAHM

8,0 %



3,1 %

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi**

3,2 %



7,2 %

Sanoat

8,5 %



13,3 %

Qurilish

16,2 %




9,7%

Xizmatlar

9,9 %

2025-yilda YAHM deflyatori indeksi 2024-yildagi narxlarga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 113,3 % va xizmatlar sohasida – 111,4 % qayd etildi.

**2024-2025- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yil uchun kichik tadbirkorlik sub'yektlarining YAHMdagi ishlab chiqarish hajmi 83 111,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024-yilida – 74 053,5 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 69,5 % ni (2024-yilda – 72,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

**2024-2025- yillar uchun kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

74 053,5

72,4 %

2025- yil

83 111,9

69,5 %

